



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI  
VAZIRLIGI



Respublika  
Ta'lim Markazi

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

**2022–2023-O'QUV YILIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM  
MAKTABLARINING 9-SINF O'QUVCHILARI UCHUN  
YAKUNIY NAZORAT IMTIHONINI O'TKAZISH BO'YICHA  
ONA TILI VA ADABIYOT FANLARIDAN METODIK  
TAVSIYA VA MATERIALLAR**



**Toshkent-2023**

Imtihon materiallari va tavsiyalar Respublika ta'lim markazi huzuridagi ilmiy-metodik kengashining 2023-yil 6-martdagi navbatdan tashqari yig'ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 9-sinf o'quvchilari uchun yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish bo'yicha metodik tavsiya va materiallarni tijoriy maqsadda ko'paytirib tarqatish taqiqlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari metodbirlashmalari bosqichli nazorat imtihoni materiallariga 15–20% gacha o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

### **Tuzuvchi:**

**M. Siddiqov** – Respublika ta'lim markazi ona tili fani metodisti.

### **Taqrizchilar:**

**Z. Rashidova** – Toshkent shahridagi Prezident maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

**N. Hakimova** – Toshkent viloyati Olmaliq tumani 19-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

## **ONA TILI**

### **9-SINF**

Ona tili fanidan o'quvchilarning DTSda belgilangan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning elementlari qay darajada shakllanganligini hamda fikrini mantiqiy izchillikda, ona tilining keng imkoniyatlaridan o'rinli foydalangan holda ravon va to'g'ri bayon eta olish malakasi, fikr bayon etilayotgan soha bo'yicha o'quvchining bilimlari kengligi va chuqurligi, tuzgan matnining imloviy, uslubiy, savodlilik darajasini aniqlash maqsadida 9-sinf bitiruvchilari ona tili fanidan yakuniy attestatsiyada ijodiy bayon yozadilar.

Bayon matnlari 3 ta variantda tayyorlanadi. Har bir variantda bittadan matn beriladi. Bir o'quvchi 3 ta variantdan (konvertdan) bittasini tanlab oladi. Tanlab olingan konvertdagi matn mavzusi doskaga yozib qo'yiladi. Ijodiy bayon uchun berilgan topshiriq ham doskaga yozib qo'yiladi. O'qituvchi tomonidan ijodiy bayon matni bir marta (lozim bo'lsa, ikki marta) o'qib eshittiriladi. O'quvchilar eshitgan matn mavzusidan berilgan topshiriq asosida ijodiy bayon yozadilar .

Ijodiy bayon hajmi 9-sinf uchun 3,5 – 4 bet bo'lishi mumkin. Belgilangan vaqt 2 soat (120 daqiqa) bo'lib, 5 ballik tizimda baholanadi. Tasviriy vositalardan foydalanib bayon yozishda o'quvchi matn mazmuniga bog'lab, mustaqil ravishda ayrim narsa, voqea-hodisalarni tasvirlaydi. Boshlab berish yo'li bilan bayon yozishda boshlanishi berilgan matnni o'quvchilar ijodiy davom ettirib, uni to'liq matn shakliga keltiradilar. O'quvchining yozgan bayoni mazmun izchilligi va lisoniy qurilishi jihatidan talab darajasida bo'lishi bilan birga, savodli bo'lishi kerak. Shuningdek, bayonning reja asosida yozilishiga erishilishi zarur. Aniq tuzilgan reja o'quvchi bayonining izchil mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi.

Ijodiy bayon uchun ikkita baho (mazmuniga va savodxonligiga 5/5 tarzida) qo'yiladi.

## Ijodiy bayon quyidagi baholash mezonini asosida baholanadi:

Baho	Mazmuni	Savodxonligi
“5”	<ul style="list-style-type: none"> <li>– yozma ishning rejasi mavzu mazmunini to‘liq qamrab olgan bo‘lsa;</li> <li>– ish mazmuni mavzu rejasi bilan to‘liq mos kelsa;</li> <li>– yozma ish mazmuni tizimli, uzluksiz ravishda yoritilgan bo‘lsa;</li> <li>– yozma nutqning leksik boyligi, so‘zlarning o‘z o‘rnida ishlatilishi va sintaktik gap qurilishining har xilligi bilan ajralib tursa;</li> <li>– yozma ishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida hikmatli so‘z, maqol va statistik ma’lumotlardan o‘rinli foydalangan, hamda keltirilgan ma’lumotlar asosli bo‘lsa;</li> <li>– yozma ishda adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda;</li> <li>– mavzu mazmuni hozirgi davr bilan bog‘liq umumiy xulosalangan bo‘lsa.</li> </ul>	Matn husnixat bilan yozilib , 1 ta imlo , 1 ta ishoraviy xato, 1 ta grammatik xato bo‘lsa (bu 1/1/1 shaklida belgilanadi)
“4”	<ul style="list-style-type: none"> <li>– yozma ish rejaga mos mazmuni batafsil yoritilgan, ammo ayrim joylarida keltirilgan voqea-tasvirlarda noaniqliklar mavjud bo‘lsa;</li> <li>– milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida hikmatli so‘z, maqollardan o‘rinli foydalangan ammo, mustaqil fikrlar bayon qilishda ketma-ketlik qisman buzilgan bo‘lsa;</li> <li>– yozma nutqning leksik, grammatik tuzilishini turlicha qo‘llagan bo‘lsa;</li> <li>– matn mazmunining qurilishi yagonaligi va ifodaliligi bilan ajralib tursa;</li> <li>– mavzu adabiy til me’yorlariga amal qilgan, umumiy xulosalangan bo‘lsa, ammo matn mazmunida mavzudan biroz chetga chiqishlar bo‘lsa.</li> </ul>	Bu yozma ishda xatolar soni quyidagicha bo‘lganda: 2/2/3; 1/3/3; 0/4/3. Biroq, grammatik xatolar soni 3 tadan, imlo xatolarning umumiy soni 2 tadan oshmasligi kerak
“3”	<ul style="list-style-type: none"> <li>– yozma ish aniq yozilgan, ammo matndagi 3-4 faktlarda xatoliklar bor bo‘lsa;</li> <li>– yozma ishda belgilangan mavzudan chetlashlar (mavzuga aloqasi bo‘lmagan ma’lumotlar) mavjud bo‘lsa;</li> <li>– yozilgan matnning mavzuga mosligi 70% dan kam bo‘lgan holatlarda;</li> <li>– matnning rejalarini yoritishda ketma-ketlik buzilsa;</li> <li>– yozma nutqda leksik boyligi yo‘q , gap tuzish usullari bir xil bo‘lsa;</li> <li>– matnning qurilishida bir xillik yo‘q, ifodali yoritilmagan bo‘lsa.</li> </ul>	Bunda xatolar quyidagicha bo‘lganda: 0/5/7; 1/4-7/4; 2/3-6/4; 4/4/4; 3/5/4.
“2”	<ul style="list-style-type: none"> <li>– yozma ish mazmuni rejaga umuman to‘g‘ri kelmagan bo‘lsa;</li> <li>– ma’lumotlarda xatoliklar ko‘p bo‘lsa;</li> <li>– matn mavzuga mosligi 50% dan kam bo‘lsa;</li> <li>– mavzuni yoritishda ketma-ketlik butunlay buzilgan, mavzu bilan reja bir-biriga to‘g‘ri kelmasa;</li> <li>– yozma ishning matnida qisqa bir xil tipdagi umumiy so‘zlarni o‘rinsiz qo‘llash holatlari kuzatilsa;</li> </ul>	Xatolar soni turlicha bo‘lishi mumkin: – yozma ishda ishoraviy xatolar qancha bo‘lishidan qat’i nazar, 5 ta imlo xato qilganda;

		qancha bo'lishidan qat'i nazar, 5 ta imlo xato qilganda; – 8 yoki undan ortiq ishoraviy xato, imlo xatolar, grammatik xatolar soni 5 ta bo'lganda.
“1”	Yuqorida ko'rsatilgan mezonlardan past darajada yozilgan matnga qo'yiladi.	7 va undan ortiq grammatik xatolar bo'lsa.

***Eslatma:***

1. Yozma ishni baholashda o'quvchining mustaqil ( mantiqiy, kreativ, asosli) fikrlari, qiyoslash, tasvirlash uslubi, zamonga mos talqinlar, yozma nutq savodxonligi, gap qurilishi, yagona fikrlarning o'rinli ishlatilishi, ijodiy yondashishiga qarab bir ballga oshirib qo'yilishi mumkin.

2. Agar matnning hajmi belgilangan betdan 1,5 yoki 2 baravar ortiq bo'lsa, yuqorida ko'rsatilgan mezondan bittaga oshiriladi. Ammo “5” baho qo'yiladigan yozma ish bundan mustasno. Masalan “4” baho qo'yiladigan yozma ishda xatolar soni har biridan (yuqorida belgilangan imlo, ishora kabi) 1 taga, “3” qo'yiladigan yozma ishda 2 taga oshiriladi.

3. Matnning mavzusi umuman yoritib berilmagan bo'lsa, birinchi baho to'g'ridan to'g'ri “qoniqarsiz” qo'yiladi.

## BAYON MATNLARI UCHUN NAMUNA

### HAMISHA SHUNDAY BO‘LAVERMAYDI

Bir kuni ko‘chada sayr qilib yurgan kishi yo‘l chetida o‘tirgan keksa odamni ko‘rib qoldi. U mo‘ysafidning qarshisiga kelib, murojaat qildi:

– Otaxon, ulug‘ yoshli inson ekansiz, anchagina uzoq hayot yo‘lini bosib o‘tgansiz. Shubhasiz, juda dono bo‘lsangiz kerak. Ayting-chi, mana, men kuchliman-u, ammo hech qayerdan ish topa olmayapman. O‘g‘lim giyohvandlikka berildi, qizimni ham yaxshi tarbiyalay olmayapman. Ayolim esa kun bo‘yi uyda o‘tirsam ham, hech qayerga qaramaydi. Xo‘sh, men bu vaziyatda qanday yo‘l tutishim kerak? Nima qilsam, bularning hammasini o‘zgartira olaman?

Qariya javob berdi:

– Eshiging ustiga kichkinagina taxtacha osib, unga “Hamisha shunday bo‘lavermaydi” deb yozib qo‘y.

– Shu xolosmi? – hayron bo‘ldi erkak.

– Shu xolos, – javob qildi keksa kishi.

U uyiga borib, qariya aytgandek qildi. Bir qancha vaqt o‘tgach, uning o‘g‘li giyohvandlikni tashladi. Qizi bir yaxshi yigit bilan oila qurdi. Ayoli ham o‘zgardi va risoladagidek bekaga aylandi. Erkakning o‘zi esa serdaromad ishga joylashdi va ko‘p o‘tmay mashina ham sotib oldi.

Kunlarning birida u tanish ko‘chadan o‘tib borayotib, ikki yilcha oldin keksa mo‘ysafidni uchratgan joyida to‘xtadi. Qariya hali ham shu yerda o‘tirgandi. Erkak uning oldiga yaqinlasharkan, mashinadan tushmagan holda, uning oynasini ochib, so‘z qotdi:

– Ha, boboy, haliyam o‘tiribsizmi? Mana, men, ko‘rib turganingizdek, ancha narsaga erishdim. O‘g‘lim giyohvandlikni tashladi, qizimni turmushga berdim. Ayolim ham yaxshi rafiqaga aylandi. O‘zim ishga joylashdim va endi martabali boshliqman. Siz esa haliyam o‘shandek o‘tiribsiz, no‘noq chol! Xo‘sh, endi menga nima deb maslahat berasiz?

Bu gaplardan qariyaning chehrasi o‘zgarmadi, aksincha, u suhbatdoshiga xotirjam tikilganicha dedi:

– Haligi taxtacha bor edi-ku, shuni olib tashlamagin...

*(Ruschadan Muhabbat Sharifova tarjimasi)*

#### **Topshiriqlar:**

1. Matnga reja tuzing.
2. O‘z fikr-mulohazalaringizni qo‘shib bayon yozing.

## QQ QOG‘OZ VA QORA DOG‘

Professor darsxonaga kirib kelishi bilanoq talabalaridan ajoyib bir testga tayyorgarlik ko‘rishlarini so‘radi. Talabalar biroz tashvishga tushgan holda test boshlanishini kutishar edi. Muallim har doimgidek test qog‘ozini orqa o‘girib tarqatib chiqdi. Talabalar test savollarini o‘qish maqsadida qog‘ozni o‘girishdi. Qog‘oz o‘rtasida bitta qora nuqtadan boshqa hech qanday topshiriq yo‘q edi. Bundan ajablangan talabalar bir-birlariga hayron qarab qolishdi.

Professor talabalarning yuzida ajablanishni ko‘rishi bilan ularga: “Men qog‘ozda nimani ko‘rayotgan bo‘lsangiz, shu haqda yozishingizni so‘rayman”, – dedi. Talabalar ikkilanish bilan tushunarsiz shartni bajarishni boshladilar. Darsning oxiriga kelib, professor barchadan qog‘ozlarni yig‘ib olib, har bir talabaning yozgan javobini ular oldida ovoz chiqarib o‘qiy boshladi. Talabalarning barchasi faqatgina qora nuqta haqida, uning qog‘oz o‘rtasida joylashgani haqida yozgan, o‘z fikrini bayon qilgan edi.

Javoblar o‘qib bo‘lingach, oraga sukunat cho‘mdi va biroz o‘tib professor talabalarga: “Men bu javoblarga baho qo‘ymoqchi emasman. Sizlarni mulohazaga chorlamoqchiman, xolos. Hech kim o‘z javobida qog‘ozning oq qismi haqida hech narsa yozmabdi. Barcha diqqat-e‘tiborni qora nuqtaga qaratibdi. Afsuski, xuddi shu holat bizning hayotimizda ham mavjud. Biz har doim insonlarning yomon odatlariga e‘tibor beramiz, xuddi qog‘ozdagi qora nuqta kabi. Aslida, qog‘ozning oq joyi qora nuqtaga qaraganda ancha ko‘p. Tiriklik – bir-birimizga yordam berish, qayg‘urish uchun berilgan sovg‘a. Hayotimiz xursandchiliklarga, yaxshiliklarga, yaxshi insonlarga to‘ladir. To‘g‘ri, o‘sha qora nuqtaga ham e‘tibor qaratishimiz, uni to‘g‘rilashga yordam berishimiz kerak. Lekin bu oq joylarni unutmagan holda bo‘lishi kerak. Qora nuqta esa oq joylarga nisbatan juda ham kichkina, ko‘rinmasdir”, – dedi.

*(Mirnosir Hasanov tarjimasi)*

### **Topshiriqlar:**

1. Matnga reja tuzing.
2. O‘z fikr-mulohazalaringizni qo‘shib to‘liq bayon yozing.

## BIR YILDA 3 MILLION TONNALIK ISROF

Alloh bergan ne'matlarni isrof qilish, ularning qadriga yetmaslik gunohdir. Bugungi kunda dunyoning qashshoq davlatlari aholisi ochlikdan sillasi qurib, sog'lig'ini yo'qotib borayotgan bir paytda ayrim davlatlarda oziq-ovqat borasida isrofgarchilikka yo'l qo'yilishi juda achinarli.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda dunyo bo'yicha ishlab chiqarilgan jami oziq-ovqat mahsulotlarining 31 foizi chiqindiga aylangan. Vaholanki, yo'qotilayotgan bu oziq-ovqat mahsulotlarining 25 foizi muhtojlarga berilsa, butun dunyodagi ochlik muammosini to'liq hal qilishga erishsa bo'ladi!

O'zbekistonda ham mahsulotlarning chiqindiga chiqish ko'rsatkichi ancha yuqori. Mamlakatda yiliga 3 million tonna iste'mol mahsulotlari isrof qilinadi. Birgina Toshkent shahrida har kuni 2 tonnaga yaqin non mahsuloti chiqindiga tashlanadi. Bu esa faqatgina poytaxtda yiliga 730 tonna non mahsuloti chiqindiga aylanishini anglatadi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 4 million aholi kam ta'minlangan hisoblanib, daromadining 67 foizini oziq-ovqat mahsulotlariga sarflaydi.

Qancha qishloq xo'jalik mahsulotlari ombordan peshtaxtaga kelgunga qadar yaroqlilik muddati qisqaradi. Import mahsulotlar, hujjati to'g'ri bo'lmasa, bojxona omborlarida qolib ketadi va yo'q qilinadi. Supermarketlarda yaroqlilik muddati tugab, sotilmay qolgan mahsulotlar shunchaki isrof bo'ladi, hatto chegirmalar ham bunga yordam bermaydi. Do'konlar yaroqlilik muddati oz qolgan mahsulotlarni muhtojlarga to'g'ridan to'g'ri berib yuborgandan ko'ra, yo'q qilishni afzal ko'radi, chunki soliq to'lamaydi.

Ko'rinib turibdiki, bu yerda qandaydir tizimli muammo bor, kimlardir oziq-ovqatga yetib bora olmayapti, qayerdadir esa isrof qilinyapti.

Muhtojlarning bu oziq-ovqatlarga yetib borishi, ularni to'g'ri va manzilli taqsimlash tizimi hali yo'lga qo'yilmagan. Do'konlar, supermarketlar uchun oziq-ovqat mahsulotlarini beg'araz taqdim etishni rag'batlantirish tizimi mavjud emas.

Boshqa davlatlar misolida ko'radigan bo'lsak, masalan, Germaniyada yaroqlilik muddati oz qolgan oziq-ovqat mahsulotlari beg'araz taqdim qilinganda, nol stavkada QQS (qo'shimcha qiymat solig'i) hisoblanadi.

Fransiyada savdo do'konlari saqlash muddati tugagan, ammo iste'molga yaroqli, uzoq muddat sifatini saqlab qoladigan oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol uchun xayriya fondlariga beg'araz taqdim etilishi shart!

Bizda ham oziq-ovqat banklari faoliyatini yo'lga qo'yish vaqti keldi.

Agar oziq-ovqat mahsulotlaridan samarali foydalanish tizimi yo'lga qo'yilsa, isrof bo'lmaydi, oziq-ovqatga muhtojlar kamayardi, qancha kasalliklar va boshqa ijtimoiy muammolarning oldi olinardi.

*Shahnoza Soatova*

### **Topshiriqlar:**

1. Matnga reja tuzing.
2. O'z fikr-mulohazalaringizni qo'shib to'liq bayon yozing.